

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA ROSSIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI
JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA MOL-MULKNI XATLASH
INSTITUTINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI**

Daminova Dilnora

Muallif- Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 2- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20280512>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federativ Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida mol-mulkni xatlash institutining huquqiy asoslari, qo'llanish tartibi hamda protsessual ahamiyati qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Maqolada mol-mulkni xatlashning maqsadi, tergov organlari va sud vakolatlari, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda ushbu protsessni amalga oshirish tartibi hamda dalillarni saqlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston va Rossiya qonunchiligi o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilinib, ushbu institutning jinoyat protsessidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mol-mulkni xatlash, jinoyat protsessi, jinoyat-protsessual huquq, sud nazorati, tergov, konfiskatsiya, fuqaroviy da'vo, protsessual majburlov chorasi, qiyosiy-huquqiy tahlil, dalillar.

Kirish

Mol-mulkni xatlash tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, bu shunday jarayonki, mol-mulk egasiga yoki uning mol-mulkini sotish, foydalanishga berish, yoxud ushbu turdagi mol-mulkni boshqa usullarda tassarufl qilish va zarur bo'lgan hollarda undan foydalanishni ta'qiqlash, va xuddi shuningdek boshqa jinoyat protsessi jarayonlarida aynan o'sha shaxs yoki o'zga shaxslar tomonidan mol-mulkdan to'liq foydalanishni cheklab qo'yish yoki shu jinoyat aniqlanish va shu kabi bosqichlarda olib qo'yilishini tushunishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi va Jinoyat qonunchiligi bo'yicha mol- mulkni xatlash tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 290-moddasiga ko'ra, ushbu mol- mulkni xatlash protsessi har qanday hukmning fuqaroviy da'voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash maqsadiga yetishish uchun surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgarning o'ziga qonunan tegishli bo'lgan yoki nikoh davrida birgalikda mulk deya e'tirof etilishi mumkin bo'lgan mol-mulkni xatlashi shart hisoblanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligi bo'yicha ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan va e'tirof qilinishi mumkin bo'lgan mol- mulkning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgar tomonidan, yoki unga yaqin shaxslar va qarindoshlari tomonidan o'zlashtirilib yuborilishining, xarj qilib yuborilishning, yashirilishining, yo'q qilib yuborilishining yoki shikastlanishining oldini olish maqsadida ushbu mol-mulk ham xatlanadi.

Keyin shu maqsadda surishtiruvchi, tergovchi tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va fuqoraviy javobgarning mol-mulkini xatlash to'g'risidagi iltimosnoma qo'zg'atish to'g'risidagi qaror chiqaradi va ushbu qarorning tarkibida bu turdagi protsessual harakatlarni o'tkazish asoslarini bayon etadi.

Tergovchi yoki surishtiruvchi mol-mulkni xatlash to'g'risidagi qaror chiqargandan so'ng, uning tarkibiga ushbu qarorini asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda prokurorga yuborishi kerak.

Prokuror esa ushbu mol-mulkni xatlash to'g'risidagi qarorning qonuniyligini va jinoyat qonunchiligiga asoslanligini tekshirib chiqib, yetarli asos mavjud deb hisoblasa, mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomani qo'zg'atish to'g'risidagi qaror va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Lekin agar ushbu jinoyat ishida ma'lum bir sabablarga ko'ra kechiktirib bo'lmaydigan holatlar mavjud bo'ladigan bo'lsa, mol- mulkni xatlash sudning roziligisiz ham, faqatgina tergovchi yoki surishtiruvchining qarori asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ammo, bunday kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda ham keyinchalik sudya va prokuror qarori, bayonnomaning ko'chirma nusxalari ilova qilingan holda 24 soat ichida xabardor qilinishi shart va ushbu xabarnomada kechiktirib bo'lmaydigan holatlar aniq va asoslantirib ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Mazkur xabarnomaga tergovchi yoki surishtiruvchining mol-mulkni xatlash to'g'risidagi qarorining, mol- mulkning xatlash bayonnomasining va zarur materiallarning ko'chirma nusxalari va ushbu protsessning yuritilishi to'g'risidagi qarorning qonuniyligini isbotlash uchun ilova qillinadi.

Ushbu xabarnoma sudga kelib tushgan paytdan sud tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan chiqarilgan qarorni JPK 290-moddaning 1 va 2 prim moddalarida nazarda tutilgan tartiblarga ko'ra 48 soat qonuniyligi yoki qonunga xilofligini tekshirib, ajrim chiqaradi.

Ushbu protsess davomida sudya tomonidan mol- mulkni xatlash to'g'risidagi qaror qonunga xilof deb topiladigan bo'lsa, ushbu qarorning chiqarilishi va xatlash protsessi davomida olingan barcha dallilar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi 95- moddaning birinchi qismiga ko'ra nomaqbul dalil sifatida e'tirof etilishi shart.

Mol-mulkni xatlash to'g'risidagi protsesslar sud ajrimi o'qib eshittirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Agar sudning ushbu ajrimiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, fuqoraviy javobgar yoxud ularning vakillari tomonidan nozroziliklar mavjud bo'ladigan bo'lsa, ular tomonidan 72 soat ichida yuqori sudga apellatsiya tazrda shikoyat qilishlari va prokuror bo'lsa protest bildirishi mumkin hisoblanadi.

Shuningdek, agar vaziyat taqozo etsa va ushbu kodeksga ko'ra diplomatik vakolatxonalar va boshqa shu kabi binolar va ushbu turdagi holatlar bilan bog'liq bo'lgan mulklar xatlanadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 165- moddasida belgilab qo'yilgan tartibda va asoslarni qo'llagan holda xatlanishi shart.

Agar fuqoraviy da'vo qanoatlantirilgan bo'lsa yoki boshqa mulkiy undirishlar qo'llanayotgan bo'lsa, hukm qonuniy kuchga kiringuncha bo'lgan muddat ichida, ammo e'tibor qilinadigan jihat bu bo'yicha oldin chora ko'rilmagan bo'lsa, sud tomonidan chiqarilgan ushbu

hukmning shu qismi ijrosini ta'minlash maqsadida chora ko'rish maqsadida sud ajrim chiqarishi va uning ijrosini surishtiruvchi yoki tergovchiga topshirishga haqli hisoblanadi.

Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi va qonunchiligi bo'yicha mol- mulkni xatlash tartibi

Rossiya Federativ Respublikasi jinoyat qonunchiligi bo'yicha qiyosiy- huquqiy tahlil qilish davomida biz jinoyat qonunchiligi bizning mamlakatimizdan ko'ra ancha rivojlangan davlat texnikalari, nafaqat mol- mulkni xatlash, balki umumiy jihatdan ham bir necha takliflarga ega bo'lishimiz mumkin. Albatta, bundan biroz avvalroq Jinoyat huquqi 2 fanidan o'tkazgan qiyosiy tahlilimizda ham biz amin bo'lganmizki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga xorijiy davlatlardan olib kiriladigan o'zgarishlar asosida nafaqat sodir qilinadigan jinoyatlar sonini kamaytiramiz, balki ularning yopiq qolib ketishini oldini olamiz, aniqlanish jarayonini tezlashtiramiz va kelajakda shu turdagi jinoyatlarning nafaqat shu shaxslar tomonidan, balki boshqa shaxslar tomonidan ham sodir qilinishining oldini olamiz. Bu albatta preventiv funksiyaga to'g'ri keladi.

Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi 115- moddasida O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha mol- mulkni xatlash protsessi berilgan va ushbu moddaning nomlanishi "арест имущества", ya'ni ushbu modda sud hukmining fuqaroviy da'vo qismi va mol- mulk bilan bog'liq bo'lgan jarimalarni ijro etilishini ta'minlash uchun ushbu holatda gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining mol-mulki huquqni tartibga soluvchi organlar tomonidan nazorat ostiga olinishi, bizning jinoyat qonunchiligimiz bo'yicha mol- mulkning xatlanishi deb atalsa, Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat qonunchiligi bo'yicha arrestlanish deb nomlanadi.

Ushbu jinoyat qonunchiligiga kiritilgan moddaning asos va maqsadlari shundan iboratki, mol- mulkni xatlash jinoyat sodir etilganligi sababli paydo bo'lgan mulkiy da'volarni qoplash, jazo sifatida berilgan va da'vogarga yetgan moddiy to'lovlarni yoki shu jumladan konfiskatsiya masalalari kelib chiqadigan bo'lsa ularni ta'minlash maqsadida joriy etilgan.

Umumiy olib konfiskatsiya so'ziga va u nima maqsadlarda qo'llanilishi haqida gapiradigan bo'lsak, bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra ayblanuvchi, gumonlanuvchi, mahkum sifatida javobgarlikka tortilgan shaxsning mol- mulki davlat foydasiga majburiy qilib olib qo'yilishi hisoblanadi.

Konfiskatsiyaning qo'llanilish asoslari:

- Sud yoki vakolatga ega bo'lgan surishtiruvchi yoki tergovchi qarori bila amalga oshiriladi.
- Haq to'lamasdan yani tekinga olib quyiladi.
- Odatda jinoyat yoki huquqbuzarlik oqibati sifatida qo'llaniladi.
- Eng asosiy va e'tibor berarli jihati shundan iboratki, bu protsess jinoyatning sodir qilish quroli, noqonuniy tarzda orttirilgan yoki topilgan daromadlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Biz hozirda qiyosiy tahlilini o'tkazayotgan ikkala davlatning jinoyat qonunchilik tizimida mol- mulkni xatlash to'g'risidagi qaror surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan yuboriladi, keyin ushbu qaror prokuror tomonidan asosligi, qonuniyligi ko'rib chiqilib, asos va zaruriy materiallarni ko'rib chiqilib sudga iltimosnoma yuboriladi.

Umumiy jarayon o'xshash bo'lsa- da, Rossiya Federativ Respublikasi jinoyat qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bir nechta sezilarli farqlarni ko'rishimiz

mumkin. Rossiya qonunchiligi bo'yicha tergovchi yoki surishtiruvchi shaxsan prokurorning roziligi bilan bevosita sudga ariza kiritish huquqiga ega. Har ikki davlat tizimida ham sud o'ziga kelib tushgan arizalarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqadi. Farqli jihat esa O'zbekiston jinoyat qonunchiligida 48 soat ichida ko'rib chiqishi va ajrim chiqarishi shart bo'lsa, Rossiya qonunchiligida ushbu muddat ikki barobar qisqa, ya'ni 24 soat ichida ushbu harakat amalga oshirilishi shart hisoblanadi.

Ikkala davlat qonunchilik tizimida ham xatlash mol- mulkning egasiga mulkiga nisbatan ta'qiq va cheklov qo'yish hisoblanadi. Ya'ni ablanuvchi, gumonlanuvchi yoki mahkumga tegishli bo'lgan mol- mulkni o'zga shaxsga sotish yoki hadya qilish mumkin emasligi belgilanadi, hattoki zaruriy hollarda shu mol- mulkni davlat tomonidan olib qo'yilib saqlashga topshirilishini ham nazarda tutadi.

Yana bitta yaqqol farq shundan iboratki, Rossiya qonunchiligi bo'yicha Jinoyat Protsessual Kodeksining 115-moddasiga ko'ra olib boriladigan protsessda uchinchi shaxslarning mol-mulkleri ham kiritilishi mumkinligi yaqqol belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra esa Jinoyat Protsessual Kodeksining 290- moddasida belgilangandek, faqat gumon qilinuvchi va ayblanuvchining o'z nomida ro'yxatdan o'tkazilgan mol- mulklari yoki Oila Kodeksi bo'yicha nikohdan so'ng birgalikdagi mulklariga qaratilishi aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Protsessual Kodeksi bo'yicha aynan qanday holatlarda mol- mulkka nisbatan xatlash protsessi amalga oshirilmasligi aniq qilib belgilab qo'yilgan. Bu moddaga ko'ra butun oilaning yashab turgan xonadoni bo'ladigan bo'lsa yoki shaxsiy foydalanishdagi buyumlari, kiyim- kechaklari, uy- ro'zg'orda ishlatiladigan anjomlari xatlanmaydi.

Lekin ushbu moddaga istisno sifatida kiritilgan tarzida kiritilgan qismga ko'ra davlatga qarshi jinoyatlar turkumiga kiruvchi terrorizm yoki konstitutsiyaviy tuzumga qarshi jinoyatlarda xatlash mumkin bo'lmagan mol- mulklar ham jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararlarni qoplash maqsadida xatlanishga ruxsat etiladi. Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat Protsessual qonunchiligi bo'yicha bo'lsa moddaning aynan ichida bu turdagi ro'yxat ichida aynan qanday turdagi mol- mulkni xatlash mumkin emasligi yaqqol belgilanmagan, ammo bu protsess Rossiya Federativ Respublikasi Fuqarolik Protsessual qonunchiligi bo'yicha belgilab qo'yilgan.

Ikkita romano- german huquqiy tizimiga asoslangan davlatlarda ham tahlil qilganimizda ko'rdikki, xatlashni kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlar aniq belgilab qo'yilgan. Bizda agar shunday holatlar mavjud bo'ladigan bo'lsa 24 soat ichida prokuror va sud xabardor qilinishi belgilab qo'yilgan.

Rossiya jinoyat protsessual qonunchiligi bo'yicha esa tergovchi yoki surishtiruvchi 3 kun ichida sudga xabar berishi kerak, sud esa ushbu iltimosnoma va qarorning qonuniyligini tekshirib vaziyatga qonuniy baho berib ajrim chiqarishi kerak.

Bir xil kuzatilgan holat bu har ikkita davlat jinoyat qonunchiligiga ko'ra sud bu turdagi xatlashni va tergovchi, surishtiruvchining qarorini noqonuniy yoki asossiz deb topadigan bo'lsa mol- mulkni xatlash orqali olingan hamma dalillar nomaqbul dalil deb e'tirof etilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat qonunchiligi bo'yicha mol- mulkni xatlash instituti bo'yicha umumiy xulosa

Umumiy xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsesual qonunchiligi va Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat Protsesual qonunchiligi bo'yicha mol-mulkni xatlash institutining maqsadlari bir- biriga anchagina yaqin va o'xshash balki bunga sabab ikkita tahlil qilayotgan davlatlarimiz ham romano- german huquqiy oilasiga kirganligi uchundir yoki O'zbekiston Respublikasi umumiy qonunchiligi uchun andoza sifatida Rossiya qonunchiligi olinganligi asosiy sababdir.

Har ikkita davlat jinoyat qonunchiligida ham sudning roli ancha katta, chunki aynan uning ajrimi bilangina xatlash qonuniy deb tan olinishi yoki dalillar butunlay nomaqbul deb topilishiga sabab bo'ladi. Ikkita davlat qonunchiligi bo'yicha ham mol- mulkni xatlash amalga oshirilgandan so'ng uning egasi tomonidan shu mol- mulkni yo'q qilish, sotish yoki hadya qilish bo'yicha cheklovlar qo'yilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsesual qonunchiligiga Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat Protsesual qonunchiligidan mol- mulkni xatlash institutini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsesual qonunchiligi tarkibiga kiruvchi mol- mulkni xatlash institutini yaxshilash va rivojlangan davlatlar texnikalarini tadbiriq qilish maqsadida Rossiya Federativ Respublikasi jinoyat qonunchiligidan quyidagi takliflarni kiritishni tavsiya qilgan bo'lardim.

Birinci kiritmoqchi bo'lgan taklifim shundan iboratki, Rossiya qonunchiligi bo'yicha jinoyat ishini olib borish yuklatilgan tergovchi yoki surishtiruvchi prokurorning roziligi bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi. O'zbekistonda esa bu protsess bir necha qismlardan, ya'ni tergovchi yoki surishtiruvchi avval sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida qaror chiqaradi, keyin prokuror uning qonuniyligini tekshirib o'zi sudga iltimosnoma kiritadi, so'ng sud ham bu qarorning qonuniyligiga ishonch hosil qilgandan keyingina ajrim chiqaradi. Ko'rib turganimizdek, ushbu jarayonlar ko'proq vaqt talab qiladi va amalga oshirilayotgan jinoyat ishi natijasida o'tkazilishi kerak bo'lgan mol- mulkni xatlash protsessining cho'zilib ketishiga ham sabab bo'ladi.

Ikkinchi kiritmoqchi bo'lgan taklifim esa Rossiya qonunchiligi bo'yicha xatlash uchinchi shaxslarning mulkiga qaratilishi haqida aniq qoidalar belgilangan.

Ya'ni bunda yaqin tanishlari yoki qarindoshlariga jinoyat natijasida olingan mol-mulkdan ko'char va ko'chmas mulklar sotib olinganligi va bu huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yashirish maqsadida, "o'sha mol-mulkning xatlanib ketishini" oldini olish maqsadida qilinadi.

Xuddi shunday holatlarni aniqlash va unga qonuniy baho berish Rossiya qonunchiligida aniq qilib belgilab qo'yilgan.

Bu borada e'tibor beradigan jihatimiz ham bor albatta. Bunda uchinchi shaxslarning o'zlariga qonuniy tegishli bo'lgan mulklarning himoyasini ham ta'minlash chora- tadbirlari ishlab chiqilib qonunchilikka kiritilishi kerak.

Ko'rib turganimizdek, ushbu jarayonlar ko'proq vaqt talab qiladi va amalga oshirilayotgan jinoyat ishi natijasida o'tkazilishi kerak bo'lgan mol- mulkni xatlash protsessining cho'zilib ketishiga ham sabab bo'ladi.

Uchinchi kiritmoqchi bo'lgan taklifim shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha konfiskatsiya masalasi biroz "mavhum" ligicha qolgan.

Ya'ni Rossiya qonunchiligidagidek aniq va yaqqol belgilab qo'yilmagan, jinoyat sodir qilish quroli, jinoyat natijasida orttirilgan mol- mulklar qanday tartibda olib qo'yilish mexanizmlarini yanada biroz aniqlashtirib qo'yish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-111460>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi
3. <https://litres.uz/genre/rf-jinoyat-protsessual-kodeksi-5738/>
4. Rossiya Federativ Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi bo'yicha adabiyotlar